FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNI O‘RGANISHDA LIGVOKULTUROLOGIK YONDASHUV (INGLIZ VA O‘ZBEK FRAZEOLOGIK BIRLIKLARI MISOLIDA)

https://doi.org/10.70728/orien.v07.i02.024

Mirjalilova Madina Jamshid qizi
mirjalilovaman@gmail.com
O‘zbekiston davlat jajon tillari universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada izlanuvchi tomonidan frazeologik birliklarning boshqa millat vakillarining tillarini, mentalitetini va madaniyatini o‘rganishdagi muhim ahamiyati tahlil qilingan. Muallif tomonidan turli olimlarning lingvokulturema va uning turlariga bergan ta’riflari sanab o‘tilgan. Qo‘shimcha ravishda, frazeologiyada lingvokulturologik yondashuvga asoslanib o‘rganiladigan muammolar ham tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: lingvokulturema, frazeologik birliklar, madaniy kod, ekspressiv ma’no, turg‘un birikmalar, konseptual tahlil

LIGVOCULTUROLOGICAL APPROACH IN THE STUDY OF PHRASEOLOGICAL UNITS (ON THE EXAMPLE OF ENGLISH AND UZBEK PHRASEOLOGICAL UNITS)

Mirjalilova Madina Jamshid qizi
mirjalilovaman@gmail.com
Uzbekistan State World Languages University

Abstract: This article analyzes the significant importance of phraseological units in studying the languages, mentality, and culture of representatives of other nations. The author lists various scholars’ definitions of linguocultureme and its types. Additionally, the issues studied in phraseology based on the linguocultural approach are also examined.

Keywords: linguocultureme, phraseological units, cultural code, expressive meaning, fixed expressions, conceptual analysis

So‘nggi yillarda dunyo mamlakatlari va xalqlari orasida iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalar yanada jadal rivojlanib borayotgani tufayli boshqa xalqlar madaniyatini o‘rganishga bo‘lgan qiziqish ham ortib bormoqda. Bu jarayon o‘z navbatida, madaniyat va til orasidagi o‘zaro mutanosiblikni va bog‘liqlikni o‘rganishga

(cc) BY

bo‘lgan ehtiyojni ham kuchaytirmoqda. Til va madaniyatning o‘zaro kesishuv nuqtasida paydo bo‘lgan tilshunoslik bo‘limlarida biri, bu frazeologiyadir.

Frazeologiya - bu tilni boyitadigan, uni bezaydigan, hamda nutqqa aniqlik va obrazlilik baxsh etuvchi xalq donishmandligining miniatyur (ixcham) ifodasidir. (M.Djhusupov. 2008, 49- b.). Bundan tashqari, frazeologiya u yoki bu xalq madaniyatining ajralmas qismidir. Muayyan xalq foydalanadigan frazeologik birliklar, turg‘un birikmalar kelib chiqish tarixi jihatidan shu xalqning tarixiy taraqqiyot davrida yuz bergan ijtimoiy tarixiy epizodlar bilan uzviy bog‘liq bo‘ladi. Misol tariqasida, ingliz tilidagi *go through fire and water, go down the river, set the Thames on fire, fires of heaven* kabi frazeologik birliklar, o‘zbek tilida esa *olovday ko‘ziga issiq ko‘rinmoq, olov yigit, xijron o‘ti, sirkasi suv ko‘tarmaydigan odam* kabi frazeologik birliklar o‘zlarida milliy kolorit saqlaydi deb aytishimiz mumkin. Shu va shunga o‘xshash birikmalarni lingvokulturema deb atash xato bo‘lmaydi deb hisoblaymiz.

Lingvokulturema tushunchasiga ko‘plab olimlar turlicha yondashganlar. Lingvokulturologiyada lingvokulturema til va madaniyat tutashgan nuqtani ifodalovchi asosiy birliklardan biri hisoblanadi. Ushbu tushuncha orqali til birliklarida mujassam bo‘lgan madaniy ma’no, qadriyat va milliy tafakkur tadqiq etiladi (Maslova, 2007). V.A.Maslova lingvokulturemani madaniy axborot tashuvchi til birligi deb ta’riflaydi (Maslova, 2001). U lingvokulturemalarni quyidagicha tasniflaydi:

1. So‘z-lingvokulturemalar (masalan: *or*, *nomus*, *vijdon*)
2. Frazeologik lingvokulturemalar (masalan: *ko‘ngli ochiq*, *jonini fido qilmoq*)
3. Matn darajasidagi lingvokulturemalar (maqollar, aforizmlar, diniy matnlar)

V.A.Maslovaga ko‘ra, frazeologik lingvokulturemalar milliy mentalitetni eng aniq aks ettiruvchi til birliklaridirlar.

E.G.Azimov va A.N.Shchukinning metodik terminlar lug‘atiga ko‘ra, lingvokulturema - bu “lingvistik va ekstralingvistik qatlamlar tutashuvida shakllangan kompleks, darajalararo birlik bo‘lib, u til belgisi va uning ma’nosi hamda tushuncha va real predmet o‘rtasidagi dialektik birlikni ifodalaydi. Lingvokulturema so‘zga nisbatan chuqurroq semantik darajadagi birlik hisoblanib, unda nafaqat til orqali ifodalangan fikr shakli, balki u bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan madaniy muhit va ijtimoiy tajriba ham mujassam bo‘ladi” (Azimov, Shchukin, 2009). Mazkur birlik muayyan belgi bilan bog‘langan predmetlar va hodisalarning milliy-madaniy xususiyatlarini tizimli tarzda aks ettiradi, shu bois u ma’no birligi sifatida mavjud bo‘ladi. Lingvokulturema so‘z, so‘z birikmasi yoki butun bir matn (jumladan, pretsedent matn) orqali ifodalanishi mumkin.

V.V.Vorobyov lingvokulturemani til va madaniyatning minimal birligi sifatida izohlaydi. Uning ta’kidlashicha, lingvokulturema so‘z, frazeologizm, maqol, ramzi obrazlar orqali namoyon bo‘luvchi birliklar sifatida namoyon bo‘ladi. (Vorobyov, 1997). V.N.Teliya lingvokulturemani baholovchi va emotsional-ekspressiv mazmunga

(cc) BY

ega madaniy belgi sifatida talqin qiladi (Teliya, 1996). U lingvokulturemalarni: aksiologik (qadriyatga oid), stereotipik, ramziy turlarga ajratadi. Masalan, *oq yo‘l* iborasi ijobiy baho va madaniy ramzni ifodalovchi lingvokulturema hisoblanadi.

Yuqoridagi olimlarning fikrlaridan xulosa qiladigan bo‘lsak, lingvokulturema bu o‘zida muayyan madaniy kod yoki ekspressiv ma’no tashiydigan til birliklarini o‘z ichiga oluvchi ligvokulturologiya fanining asosiy obyekti hisoblanadi. Frazeologik birliklar, turg‘un birikmalar va iboralar esa lingvokulturemaning yaqqol namunasi bo‘lib hizmat qiladi.

Lingvokulturologik yondashuv frazeologiyani til va madaniyat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik nuqtai nazaridan o‘rganadi. Shu munosabat bilan frazeologiyada bir nechta muhim muammolar ajralib turadi.

Birinchidan, frazeologik birliklarning madaniy belgilanganligi muammosi o‘rganiladi. Bu yerda asosiy e’tibor frazeologizmlarning xalqning tarixiy tajribasi, urf-odatlari va qadriyatlari bilan bog‘liqligiga qaratiladi. Masalan, o‘zbek tilidagi *ko‘ngli ochiq* va *jonini fido qilmoq* frazeologizmlari xalqning sadoqat va saxiylik qadriyatlarini aks ettiradi. Ushbu jihat Teliya (1996) va Maslova (2001) tomonidan ta’kidlangan.

Ikkinchidan, frazeologizm orqali milliy mentalitet va dunyoqarashni aks ettirish masalasi o‘rganiladi. Ba’zi frazeologik birliklar xalqning axloqiy normalari, qadriyatlari va ijtimoiy me’yorlarini ifodalaydi. Masalan, *or-nomusini yerga urmaslik* frazeologizmi o‘zbek xalqining axloqiy qadriyatlarini, vatanparvarlik va sha’n tushunchalarini aks ettiradi (Wierzbicka, 1997; Stepanov, 2004).

Uchinchidan, frazeologik birliklarning konseptual tahlili muhim ahamiyatga ega. Har bir frazeologizm milliy madaniyatning muayyan konseptini ifodalaydi. Masalan, *taqdirga tan bermoq* iborasi “taqdir” konseptini aks ettiradi va milliy tafakkur modelini beradi (Stepanov, 2004; Maslova, 2001).

To‘rtinchidan, frazeologizmlarning konnotativ va ekspressiv komponentlari o‘rganiladi. Bu muammo frazeologizmning emotsional, baholovchi va ijtimoiy-ma’naviy ma’nolarini tahlil qilish bilan bog‘liq. Masalan, *oq yo‘l* yoki *ko‘ngli ochiq* frazeologizmlari o‘zbek tilida ijobiy baholovchi ma’noni bildiradi va ularning to‘liq anglanishi madaniy kontekstga bog‘liq (Teliya, 1996; Azimov, Shchukin, 2009).

Ma’lumki, frazeologik birliklar turli matn turlarida ma’lum stilistik va pragmatik vazifalarni bajarish, shu bilan birga diskurs doirasida ifodaviylik, baholovchi ma’no va kommunikativ samaradorlikni oshirish maqsadida keng qo‘llaniladi. Undan tashqari, turg‘un birikmalar milliy madaniyatni targ‘iz qiluvchi madaniy belgi sifatida hizmat qiladilar (Ashurova, Galiyeva, 2019). Frazeologik birliklarning aynan shu vazifasi adabiy, media va ilmiy - ommabop matnlarni tahlil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Misol tariqasida, zamonaviy ingliz adabiyotiga mansub sarlahasi tarkibida “fire” va ‘water” komponentiga ega bir necha asarlarni ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq.

(cc) BY

“Catching Fire” (*Avj olayotgan olov*) deb nomlangan asarning (Collins, S. (2009). Catching Fire. New York: Scholastic Press) asosiy mavzusi zulmkor siyosat va unga qarshi bir insooning ichida o‘sib borayotgan isyonni ochib berish hisoblanadi. Asar nomining o‘ziyoq avj olib borayotgan jarayonni bildiradi: olov bir nuqtada paydo bo‘lib, tezda kengayadi. Bu esa o‘z navbatida qo‘zg‘olonning tabiatiga qiyoslanadi. Dastlab kichik qarshilik (Katnissning individual harakati) bosh qahramon timsolida, keyinchalik esa tizimli isyonni boshlab beradi.

Katniss obrazi mazkur kontekstda shaxsiy tajriba doirasidan chiqib, ijtimoiy ongda ramziy subyekt maqomini egallaydi. “Yonayotgan qiz” timsoli uning individual identifikatsiyasidan ko‘ra kengroq - siyosiy qarshilikni birlashtiruvchi belgiga aylanganini ko‘rsatadi. Shu tariqa qahramon estetik obrazdan mafkuraviy ramzga transformatsiyalanadi.

Yong‘in motivi esa qo‘zg‘olon, strukturaviy o‘zgarish va markazlashgan nazorat mexanizmlariga bo‘ysunmaydigan siyosiy energiyaning belgisi sifatida namoyon bo‘ladi. Uning boshqarib bo‘lmas tabiati mavjud hokimiyat tizimining zaif nuqtalarini ochib beradi hamda ijtimoiy transformatsiyaning muqarrarligini anglatadi.

Asar sarlavhasi konseptual metafora darajasida INQILOB - OLOV modelini faollashtiradi. Ya’ni inqilob jarayoni kognitiv jihatdan olov fenomeni orqali tushuntiriladi: u kichik uchqundan boshlanadi, tez kengayadi va mavjud tuzumni tubdan o‘zgartirish salohiyatiga ega bo‘ladi. Shu tariqa sarlavha nafaqat badiiy obraz, balki siyosiy-hissiy intensivlikni kodlovchi kognitiv mexanizm vazifasini ham bajaradi.

Qo‘shimcha ravishda, “suv” konsepti bilan bog‘liq bo‘lgan *still waters run deep* frazeologik birligi ham zamonaviy adabiyotlarda keng foydalaniladi. Misol tariqasida, “Still Waters Run Deep” nomli Luisa Valentine tomonidan yozilgan badiiy roman sarlavhasi asar mazmuniga metaforik tarzda bog‘langan deb aytish mumkin (Valentine, 2022). Ushbu sarlavha ingliz maqoliga tayanadi: sokin ko‘rinish (still waters) ichki murakkablik yoki chuqurlikni anglatadi - bu asarda ham qahramonlar va ularning ichki kechinmalari sarlavha orqali tasvirlanadi.

Syujetga nazar tashlaganda, qahramonlar ko‘pincha sokin va tartibli hayot kechirayotgan bo‘lib ko‘rinadi, lekin ularning ichki dunyosi o‘tmish sirlari, emotsional kechinmalar va shaxsiy qarorlar bilan to‘la. Voqealar rivoji davomida bu ichki murakkablik asta-sekin yuzaga chiqadi, sarlavha esa o‘quvchiga bu jarayonni anglashga signal beradi.

Semiotik nuqtai nazardan, sarlavha romanning ichki va tashqi qatlamlarini kodlaydi, o‘quvchida qahramonlarning ruhiy transformatsiyasini sezdiradi va butun hikoyaning kognitiv metaforik kaliti sifatida ishlaydi. Sarlavha INSON XARAKTERI - SOKIN SUV CHUQURLIGI konseptual modelini faollashtiradi. Natijada, *Still*

(cc) BY

Waters Run Deep sarlavhasi nafaqat obraziy dekoratsiya, balki asarning tematik markazi va psixologik chuqurlikni ko‘rsatadigan vosita sifatida funksionallashadi.

O‘zbek adabiyotida ham adiblar va yozuvchilar tomonidan “suv” yoki “olov” komponentiga ega frazeologik birliklar keng qollaniladi. Namuna sifatida, “O‘tkan Kunlar” asarida A.Qodiriy *“Ishq o‘ti”, “qalb o‘ti”* kabi til birliklaridan tez-tez foydalangan. “O‘t” simboli turli madaniyatlarda ko‘pincha yoqimli va qayg‘uli his-tuyg‘ularni ifodalash vositasi sanaladi - masalan, sevgi ehtirosi yoki jismoniy-angli intilish. Badiiy matnda otashning bu ramziy ishlatilishi asar mazmuni va personajlarning ichki ruhiyatini anglatuvchi asosiy semantik qurilma bo‘lib xizmat qiladi.

Shuningdek, tarixiy-essistik sarlavhalarda “Olovli yillar” kabi iboralar zamonaviy voqea-hodisa yoki vaqt davrining kuchli, intensiv yakunlari bilan bog‘liq holda qo‘llanadi. Bu yerda olov metaforasi voqeaning tarqaluvchanligi, og‘ir hissiyotlar va dramatik burilishlarga ishora qiladi, ya’ni badiiy sarlavha o‘z ichiga voqea-hodisaning sifatini semiotik tarzda oladi.

“Olovli yillar” - Yoqubboy Jumaboev tomonidan yozilgan badiiy roman bo‘lib, u o‘tgan asrning 20-30-yillarida mustabid tuzumga qarshi kurashgan fidoiylarning jasoratli faoliyati va kechinmalarini yoritadi. Roman qahramonlari erkinlik, adolat va vatanparvarlik sari olib borgan jonbozona kurashlari orqali o‘tmish voqealarining dramatik manzaralarini shakllantiradi. *“Olovli yillar”* iborasi mazmunan voqea-hodisalar bilan bog‘liq dramatik intensivlikni anglatuvchi metafora bo‘lib xizmat qiladi.

Metaforik nuqtai nazaridan, “olov” - dinamik, tarqaluvchi va transformatsion energiya timsoli bo‘lib, bu sarlavha asardagi voqealar zanjirining dramatizmini ko‘rsatadi. Sarlavhadagi olov tasviri nafaqat voqealarning shiddatiga ishora qiladi, balki odamlar hayotidagi chuqur hissiy, ijtimoiy va siyosiy o‘zgarishlarni ham ramziy ifodalaydi.

Matnda bu metafora yordamida vaqt bosqichlari, shaxsiy va jamiyatdosh tajribalar, shuningdek o‘tmishdan kelajak sari yo‘l olgan qarorlar tasvirlanadi. Bu kabi sarlavha konventsiyasi badiiy nutqda voqealar oqimi va tashqi ko‘rinish ostidagi ichki dramatik jarayonlarni kognitiv tarzda ifodalashga xizmat qiladi.

Shu bilan sarlavha asarning mazmuni va tematik g‘oyalarini ramziy darajada tasvirlab beradi: olovning tarqaluvchanligi voqea harakatining tezligi va dramatik burilishlarini anglatsa, “yillar” esa o‘tmish jarayonining davomiyligini ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytsak, frazeologik birliklar bu til va madaniyatning kesishgan nuqtasida paydo bo‘lgan va yillar davomida u yoki bu xalqning ongida va nutqida turg‘un holda saqlanib kelayotgan til birliklaridir. Ularni o‘rganuvchi fan frazeologiya esa bu birliklarni turli jihatlaridan kelib chiqqan holda, o‘z oldiga turli muammolarni

(cc) BY

qo‘ygan. Ulardan eng muhimlari frazeologik birliklarning lingvokulturologik va semantik aspektlarini, ularning orasidagi mutanosiblikni o‘rganishdir.

Lingvokulturemalar, bu muhim tadqiqot obyekti bo‘lib, bir necha turdagi til birliklarini o‘zida qamarab oladi. Ko‘plab tadqiqotchilar frazeologik birliklarni ham aynan ligvokuturema deb atash maqsadga muvofiq deb ta’kidlashadi, chunki bu birliklar o‘zlarida ma’lum bir madaniy kod saqlashlari mumkin. Bu madaniy kodlarni va frazeologizmlarning chuqur semantikasini o‘rganish uchun esa turli metodologiyalar ishlab chiqilgan. Mazkur maqolada, bir necha misollar orqali frazeologik biriklarning stilistik, emotsional, konseptual va pragmatik vazifalarini tahlil qilindi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jumaboev, Y. (2007). Olovli yillar. Toshkent: Yangi asr avlodi nashriyoti.

2. Karimov, B. (2015). Lingvokulturologiya asoslari. Toshkent: Universitet.

3. Lakoff, G., & Johnson, M. (1980). Metaphors We Live By. Chicago: University of Chicago Press.

4. Madvaliyev, A. (2008). O‘zbek tilining izohli lug‘ati (frazeologizmlar masalasi). Toshkent: Sharq.

5. Maslova, V. A. (2001). Лингвокультурология. Москва: Академия.

6. Qodiriy, A. (1926). O‘tkan kunlar. Toshkent: O‘zbek adabiyoti nashriyoti.

7. Rahmatullayev, Sh. (1978). O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati. Toshkent: Fan.

8. Stepanov, Yu. S. (2004). Константы: словарь русской культуры. Москва: Академический проект.

9. Suyarova, N., & Ismatova, J. (2025). The use of metaphors in literary texts in English and Uzbek. Ta’lim

10. Teliya, V. N. (1996). Русская фразеология. Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. Москва: Школа «Языки русской культуры».

11. Valentine, L. (2022). Still Waters Run Deep. Louisa Valentine Press.

12. Vorobyov, V. V. (1997). Лингвокультурология: теория и методы. Москва: Изд-во РУДН.

13. Wierzbicka, A. (1997). Understanding Cultures through Their Keywords. New York: Oxford University Press.

(cc) BY